

**MDH, POSTSOVET RESPUBLIKALARINI STRATEGIK CHEGARALARDA  
USHLAB TURISH VOSITASI**

**Nodirbek G'olibnazarov**

Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi.

[nodirbekgoibnazarov@gmail.com](mailto:nodirbekgoibnazarov@gmail.com)

**ANOTATSIYA:** 1991-yil SSSR parchalangach uning tarkibidan ajralib chiqqan respublikalardan ayrimlari, Rossiya, Ukraina va Belorussiya Respublikalari 1991-yil 8-dekabrda Belarussiya poytaxti Minsk shahrida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkilotiga asos solishdi. Bu tashkilot tarkibiga 1991- yil 21- dekabrda Ozorbaqjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Armaniston, Moldaviya va O'zbekiston Respublikalari qo'shilishdi. MDH tashkilotining maqsadi sifatida, postsovet respublikalarining jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuvini ta'minlashga ko'maklashish ko'rsatildi. Xo'sh, haqiqatdan ham shundaymi? MDH tashkiloti tuzilishdan asl maqsad nima bo'lgan? Maqolamiz orqali shu kabi savollarga javob topishga harakat qilamiz.

**Kalit so'zlar:** SSSR, Sovuq urush, Postsovet hududi, MDH, Yevroosiyochilik, Mustaqillikdan eyforiya, Islom Karimov.

**Kirish:** SSSR XX asr 50- yillaridan keyingi davrda dunyoning bo'luvchilardan biri bo'lib tarixga kirdi. AQSH va SSSR raqobati, tarixga „Sovuq urush“ nomi bilan muhrlandi. Bu kurash kechgan davr davomida dunyo yadroviy urush tahdidi ostida yashashga majbur bo'ldi. Lekin 80- yillar oxiri 90- yillar boshlarida SSSRning parchalanishiga butun dunyo guvoh bo'ldi. SSSR prezidenti Mixail Gorbachevning shaxsan o'zi butun dunyo qarshisida sotsializmni qoraladi. Bu sotsializmning obro'sini yerga urish bilan birgalikda butun dunyodagi sotsialistik tuzumlarga ham katta zarba berdi. Lekin Minsk shahrida MDH tashkiloti tuzilib keyinchalik uning tarkibiga 1991- yilda mustaqillikni qo'lga kiritgan postsovet respublikalarining kiritilishi ortidan katta bir hududiy tuzulma vujudga keldi. Bu tashkilot mustaqillik yo'lini tanlagan respublikalarga har tomonlama ko'maklashishi va hamkorlikda dunyo bilan integratsiyalashishiga yordam berishi kerak edi. Tashkilotni tuzish to'g'risidagi Rossiya, Ukraina va Belarussiya bitimida SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo'q bo'lganligi qayd qilinib, uchchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etgandi. Tashkilot tarkibi kengayishi bilan tashkilot maqsadi va qoidalari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilindi. 1993- yil yanvarda esa, Tashkilot Ustavi qabul qilindi. U davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog'lig'i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo'riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutardi. Tashkilot ustavidan ma'lumki, MDH tashkiloti, unga a'zo davlatlarning birgalikdagi va har tomonlama hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etishi kerak edi. Bundan bilishimiz mumkinki, MDH tashkilotini tuzishdan asl maqsad, nima qilib bo'lsa ham SSSRni saqlab qolish edi. Lekin MDH tashkilotini SSSR bilan bir hil formatdagi tuzilma degan fikrga bormasligimiz lozim. Bu ikki tuzilma orasidagi eng katta farq MDHga a'zo davlatlar SSSR tarkibiga kirgan davlatlar kabi barcha muhim sohalarni markaz nazoratiga topshirmaydi. Ya'ni MDHga a'zo

davlatlar tashkilot ustavida keltirilgan maqsadlarga hamkorlikda erishishga intiladi va barcha sohalarda boshqaruv imkoniyati milliy davlatlarning o'z qo'llarida bo'ladi.

Markaziy Osiyo hududining 120 yildan ortiq vaqt davomida Rus imperiyasi va SSSR tarkibidagi mustamlaka o'lka bo'lganligi hech kimga sir emas. Yuqorida aytib o'tganimizdek, v SSSR tanazzulga yuz tutgan bo'lishiga qaramay, uni saqlab qolishni, vaqti kelsa qayta tiklashni xohlovchi kuchlar juda ko'p edi. Bu holat afsuski bugungi kunga kelib ham, dunyo XXI asrning birinchi choragini bosib o'tgan, SSSRning parchalanganiga ropparosa 33 yil bo'lgan davrda ham rus prapagandistlari tomonidan qayta-qayta tilga olinmoqda. Hozirgi Rossiyadagi imperialistik kayfiyat uzoq davr davom etgan voqealar mahsulidir. Rossiya SSSRning huquqiy vorisi sifatida uning tarkibiga kirgan barcha yerlarni qaytarmoqchiligi bugun ochiq-oydin aytib o'tmoqda. Rossiya Federatsiyasi bosh vaziri D. Medvedovning talabalari qarshisida aytib o'tgan gaplari bunga yorqin misoldir. Bugungi kunga kelib jahonning 183 hududida qurolli mojarolar mavjud. Lekin bular orasida eng yirigi Rossiyadan tashqaridagi rus millatiga mansub xalqlarga g'amxo'rlik qilish niqobi ostida olib borilayotgan Rossiya va Ukraina urushidir. Bu urush bo'lishi SSSR parchalangan vaqtdan buyon ko'p bora tilga olingan. Rossiya ko'p yillik tashqi siyosatida slavyan xalqlarining ittifoqini tuzishni maqsad qilib qo'ydi. Rossiya va Belorussiya harbiy ittifoqi keyinchalik bu ittifoqqa Ukrainaning ham majburiy-ixtiyoriy qo'shilishiga olib kelishini muhtaram prezidentimiz Islom Karimov ham o'z asarida keltirib o'tgan[1]. Bu ittifoqning tashkil etilishi keyinchalik butun postsovet respublikalariga ham bosim o'tkazilishiga yo'l ochadi deyiladi fikr davomida. Xo'sh, Rossiyaning bu kabi urushlardan asosiy maqsadi nima degan savol har kimning hayolidan o'tishi mumkin. Bu savolga javobni Ukraina urushida faol qatnashib kelayotgan Prilepinning migrantlar haqidagi gaplaridan anglashimiz mumkin. Rossiya federatsiyasida ancha vaqtdan beri demografik tanazzul kuzatilyotgani hech kimga sir emas. Oxirgi 10-15 yillikda migrantlarga muttasil fuqarolik berilyotganiga qaramay davlat aholisi kamayishda davom etmoqda. Shuningdek, Rossiya va Markaziy Osiyo munosabatlarining o'ziga xos tomonlari va xususiyatlari sifatida quyidagi omillarni keltirib o'tishimiz mumkin:

- Savdo-iqtisodiy aloqalar. Tariximizning oxirgi ikki asrida savdo- iqtisodiy aloqalarda Rossiyaga bevosita bog'lanib qoldik. To'g'ri bu davrning katta qismi qaramlikda o'tgan bo'lishi mumkin, lekin xonliklar davrida ham asosiy tashqi savdo Podsho Rossiyasiga bog'lanib qolgandi. Bugungi mustaqillik yillarida ham Markaziy Osiyoning tashqi savdodagi asosiy hamkorlaridan biri Rossiya bo'lib kelmoqda. Bunga asosiy sabab sifatida ikkala tomon uchun ham bu savdo aloqalari xonliklar davrida ham, hozirgi mustaqillik yillarida ham manfaatli bo'lganini aytishimiz mumkin. Rossiya Federatsiyasining tovarlarga qo'yadigan talablari pastligi hozirgi kunda ham asosan tashqi savdoda Rossiyaning tasiri kuchli bolib qolishiga asos bo'lib kelmoqda.

-Transport kommunikatsiyalari. Bu sohada ham SSSR davrida transport yo'laklari Turkiston qaramligini oshirish maqsadida faqat shimolga tomon yo'naltirilganiga guvohi bo'lamiz. Markaziy Osiyo respublikalari boshqa mintaqalar tomon transport yo'laklarini ochgan taqdirda ham bu hozirgi Rossiya uchun manfaatli bo'ladi.

-Markaziy Osiyo va Rossiyani xavfsizlik va xalqaro xavf- xatarlarga qarshi kurash sohasidagi umumiy manfaatlar. Bu sohaga Rossiya tomonidan alohida e'tibor berilmoqda. Bir paytlar SSSRda, masjidlarda cho'chqa boqilgan davrlar ham bo'lgan. Bugungi kunga kelib esa, Rossiya Islom olami bilan yaqin aloqalar o'rnatishga harakat qilmoqda va o'rni kelganda o'zini Islom diniga homiy, g'amxo'r davlatday ko'rsatishga urinmoqda. Hozirgi Rossiya hududida 20 mlndan ortiq musulmonlar mavjud. Markaziy Osiyoga qo'shni Afg'onistondagi

ayrim terrorchi guruhlar Chechenistondagi terrorchi guruxlar bilan hamkorlik qilayotgani Rossiyaning anchayin tashvishiga solmoqda. Bu sohada, terrorizmga qarshi kurashda, albatta, Rossiya Markaziy Osiyo bilan hamkorlik qilmay turib ijobiy natijalarga erisha olmaydi.

-Umumiy axborot maydonining mavjudligi [2]. Bu soha hozirgi kunda bizning og'riqli tomonimiz bo'lib qolmoqda. Sovet hududida umumiy axborot maydoni mavjudligi va bu axborot maydonida Rus mediasining ustuvorlik qilayotgani, insonlar ongini zaharlashda katta rol o'ynamoqda va vaqti kelganda xalqimizni o'z yo'rig'iga yurg'iza olishi insonni tashvishga soladi. Biz tezroq rus mediasiga qaramlikdan qutilishimiz suvdek zarur.

SSSR parchalangach Rossiyaning xalqaro maydondagi obro'si deyarli yo'qqa chiqdi. Deyarli hech qanday xalqaro mojarolarga, agar Rossiya manfaatlariga bevosita aloqador bo'lmasa aralashmadi. 90- yillarda postsovet respublikalarida „regionosentrizm“ deb nomlash mumkin bo'lgan kayfiyati vujudga keldi. O'zbekiston prezidenti I.Karimov bu hodisani „Mustaqillikdan eyforiya“ deb ta'riflagandi. Markaziy Osiyo davlatlarida o'zini xalqaro maydonda yuqori baholash kayfiyati vujudga kelgandi. Natijada har qanday islohotlarga Yevropa davlatlari investitsiya kiritishini kutishardi. Bu yillarda hokimiyatga kelgan Putin Rossiyaning xalqaro obro'sini tiklash uchun kurash boshladi va qisqa muddatda mintaqamizdagi deyarli barcha munozaralarga aralasha boshladi. 2000 - yillar boshlarida Rossiya tashqi siyosatida yangi bir shamol esa boshladi. Rossiya o'z atrofida demokratik, do'st davlatlarni ko'rishni istashini bildirdi. Qisqa muddatda iqtisodiy va siyosiy-harbiy obro'sini tiklashga muvaffaq bo'ldi. 2003-2004 yillar qo'shni Qirg'iziston va Tojikistonda Rossiyaning harbiy bazalari ochildi. Rossiya tarixini tadqiq etar ekanmiz tashqi siyosatida asosan „Yevroosiyochilik“ nazariyasiga tayanganiga guvoh bo'lamiz. Hozirgi tashqi siyosatida ham aynan „Yevroosiyochilik“ nazariyasining bir oqimi bo'lgan „Millatchi yevroosiyochilik g'oyalari“ ma'lum darajada namoyon bo'layotganini kuzatish mumkin. Bu nazariya asoschisi Rossiya liberal-demokratik partiyasi raisi Jirinovskiydir. U o'zining „Janubga so'nggi hujum“ (Moskva 1994.) asarida Rossiyaning shovinistik g'oyalari va kelajakka rejalarini ochib bergan. Jirinovskiy o'z asarida MDH davlatlari, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston va Hindi-Xitoy okeani hududlarini bosib olishi kerakligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari suradi. Shuningdek, SSSR parchalangach Markaziy Osiyo va Kavkazda Eron va Turkiya ancha faollashgani, bu hududdagi musulmonlar va turkiylar orasida antirossiya siyosatini olib borayotgani kabi fikrlarni bayon etgan. Rossiyaning Yaponiya, Xitoy va AQSH bilan taqqoslar ekan Rossiya ulardan ancha kuchliroq ekanini davo qiladi. Rossiyaning islom olami bilan yaqinlashishga harakat qilishi ham „Yevroosiyochilikning“ boshqa bir, ayrim oqimlariga to'g'ri keladi. Tarixning butun davrida Rossiya tarixi Turkiy xalqlar tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligini da'vo qilishlari orqali Markaziy Osiyo hududlariga egalik qilishdek g'arazli maqsadlarini ko'rsatmoqdalar. Bu g'oyalar ham yevroosiyochilik nazariyaning oqimlaridan birida keltirilgan g'oyalardir.

### **Xulosa**

I.Karimov aytganlaridek, tarix undan saboq chiqarish uchun kerak. Biz kelajagimizni boshqa bir xalqlarga qaram bo'lib qolmasligi uchun kurashishimiz darkor. Buning uchun birinchi galda OAVning mustaqilligini taminlashimiz kerak. Shu orqali xalqimiz mafkurasini va fikrlarining yo'ldan adashtirishlariga qarshi katta qadam tashlagan bo'lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR**

1. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. "O'zbekiston". 1997-yil.

2. S.Safoyev. Markaziy Osiyo geosiyasati. Toshkent. 2005- yil. 119-121- bet.
3. Ali Hasanov. Geosiyosat. TOSHKENT. „, TAMADDUN’’2016- yil. 179-198- bet.
4. O`zbekiston geosiyosati. Toshkent.2012-yil.43-46-bet.